

SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODIDAGI OT SO'Z TURKUMIGA  
TEGISHLI SO'ZLARNING QO'LLANISHI HAMDA ULARNING IZOHI

*Termiz davlat universiteti*

*O'zbek filologiyasi fakulteti*

*2-kurs talabasi*

*Choriyev*

*Nurbek jumanazar o'g'li*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada shukur xolmirzayev ijodida ot so'z turkumiga mansub birliklarning qo'llanish xususiyatlari va ularning semantik hamda stilistik izohi tahlil qilinadi. Yozuvchi asarlarida otlarning turli ma'no qatlamlari orqali badiiy tasvirning aniqligi, obrazlarning jonliligi va voqelikning real ifodasi ta'minlanishi yoritiladi. Shuningdek, otlarning kontekstual ma'nosi, ularning qahramon xarakterini ochishdagi o'rni hamda milliy koloritni ifodalashdagi ahamiyati misollar asosida tahlil etiladi. Tadqiqotda yozuvchining individual uslubi va til mahorati aynan ot birliklari orqali qanday namoyon bo'lishi ham ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** ot so'z turkumi, leksik birliklar, semantik xususiyat, badiiy nutq, individual uslub, obrazlilik, milliy kolorit, kontekstual ma'no, lingvistik tahlil, badiiy tasvir.

**annotation:** this article analyzes the usage features of nouns in the works of shukur xolmirzayev as well as their semantic and stylistic interpretations. It highlights how different semantic layers of nouns contribute to the precision of artistic description, vividness of characters, and realistic representation of reality in the writer's works. The study also examines the contextual meanings of nouns, their role in revealing characters' personalities, and their significance in expressing national color through examples. Furthermore, it demonstrates how the writer's individual style and linguistic mastery are reflected through the use of nouns.



**Keywords:** nouns, lexical units, semantic features, literary speech, individual style, imagery, national color, contextual meaning, linguistic analysis, artistic expression.

**Аннотация:** в данной статье анализируются особенности употребления имён существительных в произведениях shukur xolmirzayev, а также их семантическая и стилистическая интерпретация. Подчеркивается, что различные смысловые слои существительных обеспечивают точность художественного изображения, живость образов и реалистичность отражения действительности в творчестве писателя. Также рассматриваются контекстуальные значения существительных, их роль в раскрытии характеров героев и значение в выражении национального колорита на основе примеров. Кроме того, показано, как индивидуальный стиль и языковое мастерство автора проявляются через использование имён существительных.

**Ключевые слова:** имена существительные, лексические единицы, семантические особенности, художественная речь, индивидуальный стиль, образность, национальный колорит, контекстуальное значение, лингвистический анализ, художественное выражение.

Shukur xolmirzayev ijodi o'zbek badiiy adabiyotida til boyligi va ifoda imkoniyatlarining kengligi bilan ajralib turadi. Yozuvchining asarlarida ot so'z turkumiga mansub birliklar muhim lingvistik va badiiy vosita sifatida faol qo'llanadi. Otlar orqali u voqelikni aniq, obrazli va hayotiy tarzda tasvirlashga erishadi.

Avvalo, yozuvchi asarlarida otlar nominativ vazifani bajarish bilan birga, keng semantik yuklamaga ega bo'ladi. Ya'ni, ular faqat predmet yoki hodisani nomlabgina qolmay, balki ma'lum badiiy ma'no va hissiy rang ham kasb etadi. Masalan, tabiat, inson, turmush tarziga oid otlar orqali muallif voqealar fonini yaratadi va tasvirni jonlantiradi:



**Ayil** – egarning usti bilan otning qornidan aylantirib bog‘lanadigan to‘qali qayish. Ayilni tortib qo‘ymoq. Hech kim horigan otlarining ayilini bo‘shatmadi, quroliniyam qo‘ldan qo‘ymadi. “yoshlik”.

Ayil botmoq, qattiq tegmoq, og‘ir botmoq, ranjitmoq. Aytgan gaplarim... ayil botgan bo‘lsa, uzr, qumri kelinoyi. A.muxtor, opa-singillar.

Ayil botadigan joyi shundaki, o‘z ayblarini yashirish, odamlar fikrini chalg‘itish niyatida sofdil kishilar ustidan tuhmatlar uyushtirdi. “mushtum”.

Ayil mahkam s.t. Qorin to‘q. Ha, og‘ayni, ayil mahkammi, hech narsa yemayotirsiz? Shukur xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 1-bet.

**Ayiqtovon** – ayiqtovondoshlar oilasiga mansub, asosan ko‘p yillik o‘simlik. Shukur xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 94-bet.

**Bar** – chekka, qirra. Ust kiyimningg ikki yon etagi. Bola terga pishib ketgan edi, etak bari bilan yuzidagi terini artib olib, bizga salom berdi. N.safarov, tanlangan asarlar.

Tabibiy yaktagining barini bosa-mosa irg‘ib turdi. S.siyoev, yorug‘lik.

Bar urmoq – 1) ikki barini belbog‘iga qistirmoq. Ota-bola choponlarining etaklarini bar urib, qazuvga jo‘nab ketdilar. J.sharipov, xorazm; 2) ko‘chma ma’noda: ishga astoydil kirishmoq. Aldar ko‘sa etagini bar urib, boynikiga jo‘nabdi. “aldar ko‘sa”.

Baridan tutqazmaslik, qochib yuradigan, tutqich bermaydigan kimsa yoki narsa haqida; bo‘ysunmaslik. Cho‘l samoli esadi, tutqich bermay baridan. N.narzullaev.

Bir tomondan, yoshlikning zalvorli qadami, beqiyos ko‘rki, u baxsh etgan tuyg‘ular, boshqa yoqdan esa, shu so‘lim faslning subhidam shamolidek bar tutqazmay o‘tib ketishi haqidagi o‘ylar qo‘shilib, shoir ko‘nglida hislar ummonini yaratdi. “yoshlik”. Shukur xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 26-bet.

**Baytal** – urg‘ochi ot; biya. Baytal chopib poyga olmas. Maqol.

Tog‘ etaklaridan qor ketib, pastliklar yashillanib qolgan aprel o‘rtalarida baytalim qulunladi. S. Ahmad, jimjitlik.

Shukur xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 67-bet.



**Beda** – dukkadoshlar oilasiga mansub, bir va ko'p yillik o'simlik. Ho'l beda. Beda sepmoq. Beda o'rmoq. Supa, chorpoya atroflarida yangi o'rilgan beda hidi gupirib anqidi. S. Nurov, maysalarni ayoq urmaydi.

Shukur xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 63-bet.

Ikkinchidan, otlarning kontekstual ma'nosi yozuvchi uslubida alohida ahamiyatga ega. Bir qarashda oddiy bo'lib ko'ringan so'zlar matn ichida yangi ma'no qirralarini ochadi. Bu esa o'quvchiga chuqurroq fikrlash imkonini beradi. Xolmirzayev ko'pincha xalq tilida keng qo'llaniladigan otlardan foydalanib, ularni badiiy kontekstda yangicha talqin qiladi:

**Bo'g'ot** – 1.qamish solib yopilgan tomning devordan tashqariga chiqib turgan qismi. Peshindan beri yog'ayotgan ho'l qor tom bo'g'otlarini, ariq bo'ylarini oqartirdi. H.g'ulom, mash'al.

Quyoshning issig'i nam tuproqdan, ivigan bo'g'otlardan hovur ko'taradi. S.zunnunova, go'dak hidi.

Bo'g'ot tom: bo'g'ot chiqarilgan, bo'g'oti bor tom. Bolaxona bo'g'ot tomli, tishdan ko'rimsizgina bo'lsa ham, ichi bejirim – qadimcha edi.

2. Suv yo'lining (mas., ariq yoki ariqchaning) bo'g'ilgan joyi. Bo'g'ot solmoq. Bo'g'otni ochib yubormoq. Suvdan burun, bo'g'ot sol. Maqol.

Shukur xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 20-bet.

**Dahliz** – kirish joyi; usti yopiq yo'lak. Uyning kiraverishiga qurilgan, odatda poyabzal va ust kiyimlar yechib kiriladigan birinchi xona. Mulla fazliddin ho'l bo'lib og'irlashgan piyozi chakmoni va etigini dahlizda yechib qoldirdi. P.qodirov, yulduzli tunlar.

Dahlizda yomg'irpo'shi bilan tuflisini yechib, ichkariga o'tdi. M.xayrullaev, tilla marjon.

Zebi nam tortib ketgan dahlizda kalishini yechib, o'ng qo'ldahi xonaga kirdi. Sh.xolmirzaev, og'ir tosh ko'chsa.

Shukur xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 4-bet.

**Gaza** – adir, do'ng, balandlik. Ko'p gapirgandan ko'ra, qo'lingga belni ol-da, gazaga chiq. "yoshlik".



Bugun katta gazaning machitida gap bo'ldi. Sh.xolmirzaev, qil ko'prik.

Ochil bularning yurish qilganini ko'rib... bir gazaning panasiga o'tdi. Fozil shoir, ochildov. Och gaza ikki cho'qqi, do'ng oralig'i.

Shukur xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 34-bet.

Shuningdek, otlar qahramon xarakterini ochishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Qahramonlar nutqida qo'llanilgan otlar ularning ijtimoiy kelib chiqishi, dunyoqarashi va ruhiy holatini ifodalaydi. Masalan, oddiy xalq vakillari nutqida sodda va kundalik hayotga oid otlar ustun bo'lsa, ziyoli qatlam vakillarida murakkabroq va kitobiy leksika uchraydi:

**Jondor** – tirik; tirik mavjudot, jonzot. Bir turli jondorlar paydo bo'libdi, u jondorlar murodjonni ko'ribdi. “murodxon”.

O'rmonda jondor ko'p– silovsin bor, to'ng'iz bor. Sh. Xolmirzaev, bodom qishda gulladi.

Shukur xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 63-bet.

**Jo'ra** – bir kiyimli ikki bo'lakdan iborat ipakli mol (beqasam, atlas, shoyi va sh.k). Men keltirgan atlasni yorim solmas sandiqqa. Ming jo'rasi arziydi shu zarbdor do'ndiqqa. “qo'shiqlar”.

– bir jo'ra atlas u yoqda o'ttiz so'm, – dedi turob usmonga. O.husanov, qo'shiqchining taqdiri.

Senga bir jo'ra beqasam olib qo'ydim. A.qahhor, qo'shchinor chiroqlari.

Shukur xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 46-bet.

**Kalava** – o'ram, dumaloqlangan ip; to'r. Charxga bir necha marta bir tekis qilib o'ralgan va charxdan chiqarib olib taxlangan bir o'ram ip, ipak. Uch kalava ipak. Ustaxonaga eshik oldidagi arqonga ilingan qizil, sariq, surrang, binafsharang ip kalavalari tagidan bosh egib kiriladi. A. Muxtor, opa-singillar.

Rang-barang ipaklarni kalavasidan chiqarib, charxda bir-ikki tovlab oladi, da, koptok qilib o'rab qo'yadi. Oydin, hikoyalar.

Kalava chigallashmoq: hal etilishi lozim bo'lgan masala, muammo chigal tus olmoq.



..sabab va natijalar bir-biri bilan shunday aralashib, shunday chalkashib ketgan ediki, u oqni oqqa, qorani qoraga ajratmoqchi bo'lgani sari, kalava badtar chigallashardi. P. Qodirov, uch ildiz.

Kalavaning uchi hal etilishi, belgilanishi lozim bo'lgan masala, muammo va sh. K. Dan belgi beruvchi, uni aniqlash, belgilashga yo'l ochuvchi narsa. Buyruqlar papkasiga qarab baho berib bo'ladimi odamga nima qilish kerak kalavaning uchi bormi a. Muxtor, tug'ilish.

Turg'un bu chigal kalavaning bir uchi qodirjonga borib bog'lanishini sezardi. O. Yoqubov, tog' qizi.

Kalavasini (kalavasining uchini) yo'qotmoq, nima qilish, nimadan boshlash kerakligini bilmay qolmoq, ishi chigallashgan holda qolmoq. Ahmad kalavasini yo'qotib qo'ygan telbadek anchagacha shaharda kezib yurdi. F. Musajonov, himmat.

Bilasizmi, rais amaki, siz kasal bo'lgach, kalavamning uchini yo'qotib, shunchalik parishon bo'ldimki.. Sh. Rashidov, bo'rondan kuchli.

Shukur xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 99-bet.

**Kalish** – rezina poyabzal. Nam o'tkazmaydigan, odatda mahsi, botinka kabi poyabzallar ustidan kiyiladigan, rezinadan ishlangan oyoq kiyimi. Bolalar kalishi. Kattalar kalishi. Qiz paranji o'rniga churuk bir yaktak yopingan edi. Egnida... chit ko'ylak, oyoqlarida juda eski kalish. Oybek, tanlangan asarlar.

Etik (yoki puchuq) kalish. Etik, botinka yoki piyma ustidan kiyiladigan, uchi tovmtoq, evropacha kalish. O'zbekcha kalish odatda mahsi bilan kiyiladigan yengil, uchli kalish. Kalishini to'g'rilab qo'yimoq yoki kavushini to'g'rilab qo'yimoq. Shukur xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 35-bet.

**Kamar** – 1.suv qirg'og'ida, jar chetida, tepalik yoki tog' yonbag'rida yuvilish, o'pirilish va sh.k. Natijasida hosil bo'lgan g'orsimon o'yiqlik joy, yo'l. Akam bilan tog'kamarga tushib chiqdik. O'sha kamar ichi keng: yuz bosh qo'y soyalashi mumkin. Sh. Xolmirzaev, og'ir tosh ko'chsa.

Qirning o'rkachi narigi chetda yuksalgan tog'ning beliga yetib tugar, undan tog' bag'rini kesgandek bo'lib, kamar ketgan edi. Sh. Xolmirzaev, qil ko'prik.



2. Daryo, ariq kabi oqar suvlarda uning aylanib oqadigan joyi, aylanma harakatli chuqur joyi. Suvonjon tol tagidagi kamarga sho'ng'ib kirib ketardi-da, anchdan keyin baliq bilan chiqib kelardi. S.anorboev, oqsoy.

Po'latjon so'l oyog'i bilan suvni shaloplatib, kamardan chiqishga urinar edi. S.ahmad, qadrdon dalalar.

3. Anatomiyada: umurtqali hayvon va odamning ayrim bo'g'inlarida, o'zaro tutash ikki suyakning birida bo'ladigan yarimshar shaklidagi o'yiqlik joy, ko'z. Yelka (qo'l) kamari.

Shukur xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 1-bet.

Xulosa qilib aytganda, shukur xolmirzayev asarlarida ot so'z turkumiga mansub birliklar nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki badiiy-estetik funksiyani ham amalga oshiradi. Ular orqali yozuvchi voqelikni chuqur va ta'sirchan tasvirlab, o'ziga xos individual uslubni shakllantiradi. Yozuvchi ijodida milliy koloritni ifodalashda ham otlarning o'rni beqiyosdir. U xalqning turmush tarziga, urf-odatlariga, an'analarga oid so'zlarni keng qo'llaydi. Bu esa asarlarning milliy ruhini kuchaytiradi va o'quvchini o'zbek muhitiga olib kiradi.

Bundan tashqari, otlar badiiy tasvirning obrazlilikini oshiradi. Ular sifat va fe'llar bilan uyg'unlashib, tasvirning aniqligi va ta'sirchanligini kuchaytiradi. Natijada, badiiy matnda jonli, esda qolarli obrazlar yaratiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Холмирзаев шукур.танланган асарлар:ҳикоялар. –т.: “шарқ”2009.
2. Танланган асарлар:ҳикоялар. –т.: “шарқ”2020.
3. То'хта boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. O'zbekiston nashriyoti. Toshkent-2002.
4. Dilmurod quronov. Adabiyotshunoslikka kirish . Abdulla qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent- 2004.

